


## **2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida Surxondaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi**

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida viloyat korxonalarini tomonidan 2 trln. 882,6 mlrd.so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 107,6 % ni tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash - 5,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoat - 8,3 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash - 4,2 % ga o'sishi hisoblanadi. Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilitatsiya qilish (91,8 %) pasaydi.

### **2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarish tarkibi**



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash.**

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlari hajmi 165,6 mlrd.so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,7 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan chaqiq tosh - 1,9 martaga, osh tuzi - 1,5 martaga, ko'mir qazib olish - 1,3 martaga ga oshdi, xom neft (96,4 %) pasaygan.



### **Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

<b>2018-yil yanvar-sentyabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari</b>	<b>2019-yil yanvar-sentyabrida ishlab chiqarilgan</b>	<b>O'sish sur'ati, %</b>
---	--	---	--------------------------

#### **Ko'mir, ming t.**

130,5



169,3

129,8



#### **Neft, ming t.**

64,3



62,0

96,4



2018-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	Tog' - kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
---	---	---	-------------------

**Osh tuzi, ming t.**

4,5



7,0

154,3



**Qum, ming t.**

27,3



36,6

134,4



**Chaqiq tosh, ming t.**

27,7




52,7


1,9m




**Neft qazib olish, ming t.**



### **Ko'mir qazib olish, ming t.**



### **Chaqiq tosh qazib olish, ming t.**




### **Ishlab chiqaradigan sanoat (qayta ishlash sanoati).**

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 trln. 499,5 mlrd.so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 86,7 % ini tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmog'ining ulushi 0,1 % ni (2018-yil yanvar-sentyabr oylarida - 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali - 0,4 % ni (0,3 %), o'rta-quyi texnologiyali - 26,2 % (24,4 %) ni va quyi texnologiyali - 60,0 % (61,2 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha  
ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi**

**2019 yil yanvar-sentyabr**






**2018 yil yanvar-sentyabr**



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va uskunalarni ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, avtotransport vositalari, yarim pritseplar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasi - 7,2 % (2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan o'sish 113,0 %) ni, to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarish - 36,8 % (114,7 %) ni, yog'och va po'kak buyumlar, pohlol va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari va mebel ishlab chiqarish - 3,3 % (102,0 %) ni, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarish - 28,6 % (101,5 %) ni, kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarish - 0,4 % (101,7 %) ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, ishlab chiqarish sanoatida o'tgan yilning shu davriga nisbatan solishtirganda qurilish uchun qorishmalar va aralashmalar - 4,9 martaga, quyish uchun tayyor beton - 1,5 martaga, osh tuzi 1,5 martaga, un - 13,9 % ga, neft bitumi - 3,7 % ga, don ekinlarini qayta ishlashdan hosil bo'lgan kepak, chiqit va boshqa chiqindilar - 12,8 % ga oshdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda  
yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat  
mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar- sentyabrida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar- sentyabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
40,0	<b>Paxta tolasi, ming t.</b> 	7,1	17,7 ↓
0,0	<b>Tozalangan kungaboqar yoki masxar yog'i, ming t.</b> 	141,0	- ↑
73,7	<b>Un, ming t.</b> 	83,9	113,9 ↑
1411,4	<b>Aroq, ming l.</b> 	925,3	65,6 ↓
9,1	<b>Dizel yoqilg'isi, ming t.</b> 	8,4	92,8 ↓





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash.**

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 167,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,8 % ni) tashkil etdi.

2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida sanoatning mazkur tarmog'ida gazsimon yoqilg'li ishlab

chiqarish va taqsimlash o'tgan yilning mos davriga nisbatan 3,1 martaga oshganligi kuzatildi. Elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalash (67,5 %) kamaydi.

**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentyabrda ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
0,0	<p><b>Elektroenergiya, mln.kVt/s</b></p> 	2,3	- ↑
55,1	<p><b>Issqlik energiyasi, ming Gkal</b></p> 	44,1	80,0 ↓

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish.**



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalaridan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 49,6 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 1,7 % ni) tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan xavfsiz chiqindilarga butunlay yo'qotish uchun ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 53,4 % ga, boshqa axlatxonalarda xavfsiz chiqindilarni yo'qotish bo'yicha xizmatlar - 44,5 % ga, suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash xizmatlari - 17,5 % ga, oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 8,0 % ga oshganligi, tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo (ikkilamchi xom ashyo materiallari) (81,5 %) kamayganligi kuzatildi.

**Suv bilan ta'minlash; kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish sohasida yirik sanoat korxonalaridan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**

2018-yil yanvar-sentyabrida ishlab chiqarilgan	Ishlab chiqaradigan sanoat mahsulotlari	2019-yil yanvar-sentyabrida ishlab chiqarilgan	O'sish sur'ati, %
--	---	--	-------------------

**Tarkibida qora metallar bo'lgan ikkilamchi xom ashyo, ming tonna**

11,1



9,0

81,5



**Oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mlrd.so'm**

2,9



3,1

108,0






### Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish.

Tayyor mahsulotlar turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida iste'mol tovarlar ishlab chiqarish hajmi 1084,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 6,8 % ga o'sishni ta'minladi, jami sanoatdagi ulushi esa 37,6 % ni tashkil etdi.

### 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibi va o'sishi sur'ati



2018-yilning yanvar-sentyabr oylariga nisbatan iste'mol tovarlari tarkibida oziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 48,7 % dan 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida 48,8 % ga oshdi, nooziq-ovqat tovarlari ishlab chiqarish ulushining 51,3 % dan 51,2 % ga pasayganligi kuzatildi.

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 4,6 % ni (2018 yil yanvar-sentyabr oylarida 7,8 %) tashkil etdi.

**Hududlar bo'yicha 2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati**


	<b>Mrd.so'm</b>	<b>Jamiga nisbatan ulushi, %</b>	<b>2018 yil yanvar-sentyabrga nisbatan o'sish, %</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1 084,1</b>	<b>100,0</b>	<b>106,8</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>199,7</b>	<b>18,4</b>	<b>104,8</b>
tumanlar:			
<b>Angor</b>	<b>35,3</b>	<b>3,3</b>	<b>106,3</b>
<b>Boysun</b>	<b>34,5</b>	<b>3,2</b>	<b>106,7</b>
<b>Denov</b>	<b>223,6</b>	<b>20,6</b>	<b>101,8</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>79,8</b>	<b>7,4</b>	<b>106,3</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>39,0</b>	<b>3,6</b>	<b>106,9</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>28,6</b>	<b>2,6</b>	<b>111,9</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>22,1</b>	<b>2,0</b>	<b>107,7</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>44,7</b>	<b>4,1</b>	<b>112,8</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>59,2</b>	<b>5,5</b>	<b>105,4</b>
<b>Termiz</b>	<b>73,1</b>	<b>6,7</b>	<b>106,9</b>
<b>Uzun</b>	<b>38,4</b>	<b>3,5</b>	<b>107,1</b>
<b>Sherobod</b>	<b>65,8</b>	<b>6,1</b>	<b>116,7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>140,4</b>	<b>12,9</b>	<b>111,9</b>

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining ishlab chiqarilishi

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 598,9 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 20,8 % ni tashkil etdi.

## Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, %



Xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarning barchasi ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) korxonalar tomonidan amalga oshirildi.


## Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi.

Viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Termiz shahri (viloyat sanoat ishlab chiqarish hajmning 20,2 %), Jarqo'rg'on (22,8 %), Denov (12,3 %) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


**Hududlarning sanoat ishlab chiqarishi**

	<b>Mrd.so'm</b>	<b>2018 yil yanvar-sentyabrga nisbatan o'sish, %</b>
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>2 882,6</b>	<b>107,6</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>582,3</b>	<b>118,2</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>77,7</b>	<b>100,2</b>
<b>Boysun</b>	<b>50,7</b>	<b>101,7</b>
<b>Denov</b>	<b>355,4</b>	<b>103,5</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>655,9</b>	<b>106,3</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>145,6</b>	<b>102,8</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>67,1</b>	<b>98,9</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>47,7</b>	<b>97,1</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>58,6</b>	<b>101,0</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>208,1</b>	<b>101,7</b>
<b>Termiz</b>	<b>95,3</b>	<b>102,9</b>
<b>Uzun</b>	<b>77,8</b>	<b>90,2</b>
<b>Sherobod</b>	<b>200,9</b>	<b>210,7</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>259,4</b>	<b>99,1</b>

**2019-yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish fizik hajm indeksi**




**Surxondaryo viloyati ishlab chiqarish hajmida hududlar sanoat mahsulotlarining ulushi, %**



Hududlarning ishlab chiqarish salohiyatini oshirish bo'yicha amalga oshirilayotgan izchil chora tadbirlar natijasida, Termiz shahri (2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 118,2 %), Sherobod (210,7 %), Jarqo'rg'on (106,3 %), Denov (103,5 %) tumanlarida sanoat ishlab chiqarish hajmlari sezilarli darajada fizik hajm indeksi oshishiga imkon berdi.

Shu bilan birga, iste'mol tovarlari hajmining eng katta qismi Oltinsoy (2018-yil yanvar-sentyabr oylariga nisbatan 112,8 %), Sho'rchi (111,9 %), Sherobod (116,7 %), Qiziriq (111,9 %) tumanlarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish sezilarli darajada oshdi.

### 2019-yil yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi va o'sishi ko'rsatkichlari



Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanish tahlili Termiz shahrida (4002,1 ming so'm), Jarqo'rg'on (3051,9 ming so'm), Sho'rchi (1263,3 ming so'm), Sherobod (1055,4 ming so'm) va Sariosiyo (1023,7 ming so'm) tumanlarida ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol tovarlari ishlab chiqarilishi 418,4 ming so'm bo'lgan holda, Termiz shahrida - 1372,8 ming so'mni, Sho'rchi tumanida - 683,7 ming so'mni, Termiz tumanida - 677,9 ming so'mni va Denov tumanida - 590,1 ming so'mni tashkil etdi.

**2019-yil yanvar-sentyabr oylarida aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari va iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, ming so'm**


	Sanoat mahsulotlari	Iste'mol tovarlari
<b>Surxondaryo viloyati</b>	<b>1112,5</b>	<b>418,4</b>
<b>Termiz sh.</b>	<b>4002,1</b>	<b>1 372,8</b>
tumanlar:		
<b>Angor</b>	<b>595,1</b>	<b>270,1</b>
<b>Boysun</b>	<b>428,8</b>	<b>291,7</b>
<b>Denov</b>	<b>938,0</b>	<b>590,1</b>
<b>Jarqo'rg'on</b>	<b>3051,9</b>	<b>371,1</b>
<b>Qumqo'rg'on</b>	<b>606,4</b>	<b>162,4</b>
<b>Qiziriq</b>	<b>392,5</b>	<b>167,2</b>
<b>Muzrabot</b>	<b>341,6</b>	<b>158,5</b>
<b>Oltinsoy</b>	<b>337,3</b>	<b>257,4</b>
<b>Sariosiyo</b>	<b>1023,7</b>	<b>291,2</b>
<b>Termiz</b>	<b>884,2</b>	<b>677,9</b>
<b>Uzun</b>	<b>453,1</b>	<b>223,3</b>
<b>Sherobod</b>	<b>1055,4</b>	<b>345,8</b>
<b>Sho'rchi</b>	<b>1263,3</b>	<b>683,7</b>

Shu bilan birga, iste'mol tovarlarining eng kata ulushi Denov tumaniga (viloyat iste'mol tovarlarining 20,6 %), Termiz shahriga (18,4 %) va Shorchi (12,9 %) tumaniga to'g'ri keldi.

**Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi.**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan 1476,3 mlrd.so'mlik mahsulot ishlab chiqarildi. Ularning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 51,2 % ni tashkil etdi.

**2019-yilning yanvar-sentyabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik sub'ektlarining sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, %**



Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Oltinsoy, Boysun (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 100,0 %), Uzun (98,5 %) va Termiz (88,3 %) tumanlarida kuzatildi.




Shu bilan birga, eng kichkina ulush Sherobod (29,5 %), Jarqo'rg'on (33,6 %), Sho'rchi (38,1 %) tumanlari va Termiz shahrida (34,0 %) kuzatildi.

### **Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari.**


Bugungi kunda viloyatda 2564 ta korxonalar faoliyat yuritmoqda, shundan 552 tasi (faoliyat yuritayotgan korxonalar umumiy sonining 21,5 %) Termiz shahriga va 291 tasi (11,3 %) Denov tumaniga to'g'ri kelmoqda.

### **Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik (2019-yil 1 oktyabr holatiga)**



2019-yil yanvar-sentyabr oylarida viloyatda 807 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etildi, ularning 19,2 foizi Termiz shahri, 14,0 foizi Denov tumaniga to'g'ri keladi.

**Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik**  
*(2019-yil 1 oktyabr holatiga)*



### **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi**

Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining rivojlanishiga tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi, mazkur dastur doirasida kiritilgan 8 ta loyiha bo'yicha 17,2 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarilgan bo'lib, 254,3 ming AQSH dollari miqdorida mahalliyashtirilgan mahsulotlar eksport qilindi va 195 ta yangi ish o'rinlari yaratildi.

O'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda 2019 yil yanvar-sentyabr oylarida yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni 65,0 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2018 yil yanvar-sentyabrga nisbatan mahalliyashtirilgan mahsulotlarni eksport qilish yo'lga qo'yildi.

### **Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish Dasturining asosiy ko'rsatkichlari**

	2018 yil yanvar-sentyabr	2019 yil yanvar-sentyabr
Loyihalar soni, birlik	10	8
Korxonalar soni, birlik	9	8
Ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm	0,3	17,2
Eksportga qilingan mahalliyashtirilgan mahsulot hajmi, ming. AQSH doll.	-	254,3
Yaratilgan yangi ish o'rinlari, birlik	3	195

**Sanoat statistikasi bo'limi**  
Aloqa telefoni: (76) 223-07-24